



# Xalq so'zi

O'zbekiston —  
kelajagi  
buyuk  
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: info@xs.uz

2025 йил 29 апрель, № 86 (8981)

Seshanba

Saytimga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



## IQTISODIY KOOPERATSIYA VA YIRIK LOYIHALARNI ILGARI SURISHGA QARATILGAN SAMARALI MULOQOTLAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 28-aprel kuni Toshkent shahrida ish boshlagan "INNOPROM. Markaziy Osiyo" beshinchi xalqaro sanoat ko'rgazmasiga tashrif buyurdi.



Ko'rgazma "Central Asian Expo Uzbekistan" majmuasida o'tkazilmoqda. Ekspozitsiyaning umumiy maydoni 18 ming kvadrat metrdan ziyod. Unda Rossiya, Markaziy Osiyodagi qo'shni davlatlar, Xitoy, Hindiston va boshqa mamlakatlardan 10 mingdan ortiq delegatlar ishtirok etmoqda.

Ko'rgazmada mashinasozlik, elektrotexnika, metallurgiya, kimyo sanoati, transport, qurilish, IT va boshqa tarmoqlardagi yetakchi korxonalarining texnologik yechimlari, zamonaviy uskunalar va tayyor sanoat mahsulotlari namoyish etilmoqda.

Pavilyonlar va ekspozitsiyalarni ko'zdan kechirish chog'ida davlatimiz rahbari iqtisodiy kooperatsiya uchun katta salohiyat va yangi biznes Qoyalar ishlab chiqish uchun yaxshi imkoniyatlar mavjudligini alohida ta'kidladi.

Forum yangi yirik loyihalarni ilgari surishga sur'at bag'ishlashi, uzoq muddatli sheriklik aloqalarini rivojlantirish va hududlararo hamkorlikni kengaytirishga xizmat qilishiga ishonch bildirildi.

Tadbir doirasida O'zbekiston

Prezidenti Rossiya Hukumati Raisining birinchi o'rinbosari Denis Manturov boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashuvlar o'tkazdi.

Rossiya delegatsiyasi rahbari Prezidentimizga Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

O'tgan yil may oyida Rossiya Prezidentining O'zbekistonga davlat tashrifi yakunida erishilgan kelishuv va bitimlarni amalga oshirish masalalari ko'rib chiqildi.

Tovar ayirboshlashning o'sish sur'ati saqlanib qolmoqda, ikki mamlakat hududlarini faol jalb etgan holda muhim kooperatsiya loyihalari amalga oshirilmoqda.

Savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish, kooperatsiya loyihalari va dasturlarini ilgari surish, shu jumladan, "Innoprom" forumi doirasida o'zaro muvofiqlashgan yechimlarni ishlab chiqish muhimligi ta'kidlandi.

Tatariston Raisi Rustam Minnixonov bilan uchrashuvda yetakchi korxonalarining sanoat kooperatsiyasini va faol gumanitar

almashinuvni kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Jadal muloqotlarni davom ettirish, neft-gaz, kimyo, transport, turizm va boshqa sohalarda, shu jumladan, O'zbekiston hududlaridagi sanoat zonalarini doirasida qo'shma loyihalarni ilgari surishga kelishib olindi.

"Rosatom" davlat korporatsiyasi bosh direktori Aleksey Lixachev bilan suhbatda tinch atom sohasidagi hamkorlik jadal rivojlanib borayotgani qayd etildi.

Qishloq xo'jaligi va tibbiyotda yadro texnologiyalarini qo'llash sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish, shuningdek, Toshkent shahridagi "MMFI" filiali negizida kadrlar tayyorlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Shuningdek, davlatimiz rahbari davra suhbatida ishtirok etdi. Unda ikki mamlakat hududlari va yetakchi kompaniyalari rahbarlari kooperatsiya loyihalari amalga oshirish bo'yicha aniq rejalarni taqdimot qildilar.

O'ZA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

### Senat Kengashida

## DOLZARB QONUNLAR KO'RIB CHIQILADI

Oliy Majlis Senati Kengashining kecha bo'lib o'tgan navbatdagi majlisida parlament yuqori palatasining oltinchi yalpi majlisini 2025-yil 29-aprel kuni chaqirish to'g'risida qaror qabul qilindi.

Videokonferensaloqa tizimidan foydalangan holda o'tkaziladigan yalpi majlisda mamlakatimizni iqtisodiy rivojlantirish, ijtimoiy himoyani kuchaytirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash, sog'liqni saqlash, mudofaa hamda sud-huquq tizimi samaradorligini oshirishga qaratilgan muhim qonunlarni muhokama etish nazarda tutilgan.

Jumladan, moliya bozorini sog'lomlashtirish va banklar faoliyatini barqarorlashtirish maqsadida tayyorlangan "Banklarni sanatsiya qilish va tugatish to'g'risida"gi qonun senatorlar muhokamasiga qo'yiladi.

Bundan tashqari, ekologik barqarorlikni ta'minlash maqsadiga xizmat qiluvchi "Issiqxona gazlarining chiqarilishini cheklash to'g'risida"gi qonun ham ko'rib chiqiladi. Unda "Issiqxona gazlari" chiqarilishini kamaytirish natijasida hosil bo'ladigan uglerod birliklari muomalasi tartibini belgilash hamda "Issiqxona gazlari" chiqarilishi ustidan tizimli nazoratni ta'minlashga e'tibor qaratilgan.

Shuningdek, milliy mudofaa va xavfsizlikni mustahkamlashga qaratilgan "Davlat mudofaa buyurtmasi to'g'risida"gi qonunni ham muhokama etish nazarda tutilmoqda. Mazkur hujjat bilan davlat mudofaa buyurtmalarini

shakllantirish, kelishish, tasdiqlash va bajarishga oid munosabatlarni tartibga solishning yagona huquqiy mexanizmi yaratiladi.

Yalpi majlis kun tartibidan ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish, sud-hujjatlar va boshqa organlar qarorlarini samarali ijro etishga doir qonun hujjatlariga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar haqidagi qonunlar muhokamasi ham o'rin olgan.

Senatorlar tomonidan tamaki va nikotin mahsulotlari muomalasiga oid talablarni kuchaytirishga qaratilgan o'zgartirishlar haqidagi qonun ham ko'rib chiqiladi. Bu esa aholini zararli odatlardan muhofazalash maqsadida qonunchilikni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Majlisda O'zbekiston Respublikasi bilan Ozarbayjon Respublikasi o'rtasida ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi Shartnomani ratifikatsiya qilish masalasini ko'rib chiqish ham rejalashtirilgan.

Shu bilan birga, qishloq xo'jaligini rivojlantirish, ilm-fan yutuqlarini sohaga joriy etish va ilmiy-tadqiqot institutlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga parlament so'rovi yuborish ham nazarda tutilgan.

"Xalq so'zi".

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI SENATINING OLTINCHI YALPI MAJLISI OCHILISHI TO'G'RSIDA

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining oltinchi yalpi majlisi 2025-yil 29-aprel kuni soat 10:00 da Toshkent shahrida Oliy Majlis Senatining majlislar zalida o'z ishini boshlaydi.

Yalpi majlis Senatning "YouTube" tarmog'idagi sahifasi orqali to'g'ridan-to'g'ri yoritib boriladi.

### Siyosiy partiyalar fraksiyalarida

## TAHLILIY YONDASHUV, QIZG'IN MUNOZARA VA KONSTRUKTIV TAKLIFLAR

Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining yig'ilishlari bo'lib o'tdi. Ularda quyi palataning navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilayotgan qator qonun loyihalari atroflicha ko'rib chiqildi. Ayrim qonun loyihalari normalari yuzasidan keskin fikrlar, munozarali mulohazalar, konstruktiv takliflar ilgari surildi.

Jumladan, **Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi** yig'ilishida fraksiya a'zolari tashabbusi bilan

ishlab chiqilgan "O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga xususiy sektor uchun belgilangan ijtimoiy majburiyatlarni erkinlashtirishga qaratilgan

o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, mazkur qonun loyihasi bilan mehnat shartnomasini xodimning tashabbusi bilan bekor qilishda arizani chaqirib olish jarayonida ish beruvchining ishtirokini ta'minlash orqali xodimning mas'uliyatini oshirish belgilanmoqda.



### Festival

## MILLIY MADANIYATIMIZNING O'LMAS DURDONALARI

Joriy yilning 26 – 28-aprel kunlari Xiva shahrida IV xalqaro baxshichilik san'ati festivali bo'lib o'tdi

Xalq dostonlari va termalari millatimizning qadim tarixi, madaniy hayoti, betakror urf-odat va an'analari, qadriyatlarini, orzu-umidlarini o'zida mujassamlashtirgan beqiyos nomoddiy meros sifatida yuksak qadr-qimmatga ega. Bu bebaho boylikni asrab-avaylash, o'rganish va targ'ib qilish globallashtirilgan bugungi

zamonada milliy o'zlikni saqlab qolish, jahonda o'z o'rnini va so'ziga ega bo'lishda muhim.

Prezidentimizning 2018-yil 1-noyabrda qaratilgan asosan har ikki yilda bir bor o'tkazib kelinayotgan Xalqaro baxshichilik san'ati festivali ana shunday ezgu maqsadga xizmat qilayotgani bilan ahamiyatlidir.

Mazkur san'at bayrami xalq ijodiyoti namoyandalari, atoqli madaniyat arboblari, baxshilar, oqinlar, jirovlar, folklorshunos va musiqa shunos olimlar, folklor ixlosmandlarini bu yil ko'hnaga va hamisha navqiron Xiva shahrida jamladi.



## EZGULIK-LA BOQSIN KO'ZLAR DUNYOGA

### O'ZBEKISTON YANGI XALQARO TASHABBUSLAR MARKAZIGA AYLANMOQDA

Bugun olam ko'z o'ngimizda transformatsiya jarayonlarini boshdan kechirmoqda. Ularning ko'lami va qamrovi shu qadarki, faqat dunyo tartiboti o'zgarigan davrlar bilan qiyoslash mumkin. Avvalgi "o'yin qoidalari" o'tmishda qolmoqda. Yangilari esa endigina shakllanayotgan va davlatlarni noaniq sharoitlarda ish yuritishga majbur qilmoqda. Global iqtisodiyot tebranib turibdi, jahon siyosiy xaritasida yangidan yangi "qaynoq nuqta"lar paydo bo'lyapti. Xalqaro munosabatlar esa muvozanatda bo'lsa-da, arzimagan noto'g'ri harakat butun boshli mintaqalar hayotining izdan chiqishiga olib keladigan darajada o'ta beqaror holatda.

Bu o'zgarishlarning qanchalik sezilayotganini O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning yaqinda bo'lib o'tgan hududlarning turizm salohiyatini yanada kengaytirish hamda xorijiy hamkorlar bilan amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari jadallashtirish yuzasidan

videoselektor yig'ilishida aytgan so'zlaridan ham anglash mumkin. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, jahon iqtisodiyotida favqulodda vaziyat kuzatilmoqda, uch-to'rt kun ichida xalqaro moliya bozorlarida 10 trillion dollar mablag' yo'qotildi. "Bu tebranishlar bizga ta'sir qilmaydi, deb o'ylaganlar adashadi", dedi Prezident. Bu so'zlar nafaqat ogohlantirish, balki siyosiy vazifa hamdir: O'zbekiston dunyoda yuz berayotgan hodisalarga faqat nekinlik bilan emas, sovuqqon hushyorlik bilan ham nazar soladi.

Vaziyat Yevropadan Yaqin Sharqqa, Janubiy Osiyodan Afrikagacha bo'lgan ulkan hududda davom etib kelayotgan va biridan liv etib yonib ketishi mumkin bo'lgan ziddiyatlar tufayli yanada murakkablashmoqda. Yangi tanglik o'choqlari, jumladan, chegaralarimizdan unchalik uzoq bo'lmaganlari, bizga betaraflik va barqarorlik abadiy emasligini eslatib turibdi. Sarhadlarni mustahkamlash va muhofaza qilish lozim.



## O'ZBEKISTON TARIXDA ILK MARTA BMT STATISTIKA KOMISSIYASIGA BIR OVOZDAN SAYLANDI

Nyu-York shahrida bo'lib o'tgan BMT Statistika komissiyasining 2026 – 2029-yillarga a'zo davlatlarni saylash jarayonida tarixda ilk bor O'zbekiston ushbu organ a'zosi etib bir ovozdan saylandi.

### Biz va jahon

Ta'kidlash joizki, Statistika komissiyasi 1947-yilda BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi tomonidan funksional organ sifatida tashkil etilgan. U xalqaro statistika sohasining rivojlanishini belgilovchi asosiy hukumatlararo tashkilot bo'lib, universal statistika standartlari va metodologik prinsiplariga oid ishlarni muvofiqlashtiradi. Komissiya 24 ta davlatdan iborat bo'lib, ular 4-yilda bir marta geografik taqsimotni hisobga olib saylanadi.

O'zbekistonning ushbu organ a'zosi etib saylanishi mamlakatda Prezident rahbarligida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning xalqaro miqyosda tan olinishini va mamlakatning



global jarayonlardagi o'sib borayotgan rolini namoyon qiladi.

Statistika komissiyasiga to'liq a'zo bo'lish O'zbekiston uchun global statistik siyosatni shakllantirishda ishtirok etish, milliy tajriba va islohotlar yutuqlarini namoyish qilish, ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash uchun keng imkoniyatlarni ochib beradi.

"Dunyo" AA. Nyu-York





# ЭЗГУЛИК-ЛА БОҚСИН КЎЗЛАР ДУНЁГА

## ЎЗБЕКИСТОН ЯНГИ ХАЛҚАРО ТАШАББУСЛАР МАРКАЗИГА АЙЛАНМОҚДА



### Hamma eshitayotgan ovoz

Bugungi global noaniqlik sharoitida Shavkat Mirziyoyev prezidentligining ilk yillaridan olib borayotgan tashqi siyosat strategiyasining ahamiyati, ayniqsa, yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bu yerda so'z, eng avvalo, Markaziy Osiyoning mintaqaviy integratsiyalashuvi Qoyasi haqida bormoqda. Bu balandparvoz formula emas, balki kollektiv barqarorlik, xavfsizlik va taraqqiyotning amaliy vositasidir.

Mintaqa davlatlarining o'zaro yaqinlashuvi bo'yicha qadamlar juda ehtiyoqlik bilan qo'yildi. Biroq bunday vazminlik ortida uzoqni ko'zlab chuqur o'ylangan siyosat yetardi. O'zbekiston Prezidenti Markaziy Osiyo qarama-qarshiliklar ummonidagi "barqarorlik orolchasi" maqomini saqlab qolmoqchi ekan, u hech bo'lmaganda barcha eshitishi kerak bo'lgan umumiy ovozga ega bo'lishi kerakligini yaxshi anglagan edi.

Va bu ovoz eshitildi. Bugungi kunda biz mintaqaning yangi subyekt sifatida shakllangan haqida ayta olamiz. Markaziy Osiyo endi avvalgidek kimningdir ta'siri ostida bo'lgan chekka o'lka, buyuk davlatlar o'rtasidagi "bufer" emas. U – mustaqil, jipslashgan tashqi siyosat aktori. Uning nufuzi nafaqat jug'rofiyasi (Markaziy Osiyo mamlakatlari jami 4 million kvadrat kilometr maydonni egallab, hudud jihatdan dunyoda 7-o'rinda turadi) va demografiyasi (aholisi 80 million kishi atrofida, bu esa – dunyo bo'yicha birinchi yigirmatalikka kiradi, degani), balki dunyo davlatlari, xususan, global o'yinchilar bilan shakllantirayotgan munosabatlarning sifati bilan ham belgilanadi.

"Markaziy Osiyo plyus" formatidagi uchrashuvlar buning yaqqol isboti bo'ldi: kuchli strategik irodaga ega bo'lgan, o'z manfaatlari va ularga erishish yo'llarini yaxshi anglagan mintaqalar bilan tenglik asosida muloqotlar yo'lga qo'yildi. Toshkent tomonidan ilgari surilgan tashabbusni mintaqa davlatlari qo'llab-quvvatladi va bugun uning samarasini inkor etib bo'lmaydi.

"Markaziy Osiyo plyus" formatidagi uchrashuvni birinchi bo'lib Hindiston 2022-yil 27-yanvarda o'tkazdi. Keyin – Rossiya (sammit Ostonada 2022-yil oktyabrda bo'lib o'tdi) va Xitoy (Sian shahrida 2023-yil 19-mayda). Shundan so'ng bu jarayonga Fors ko'rfazi arab davlatlari hamkorlik kengashi (Jidda, 2023-yil 19-iyul), AQSH (Nyu-York, 2023-yil 19-sentyabr), Germaniya (Berlin, 2023-yil 29-sentyabr) va Yevropa Ittifoqi (Samarqand, 2025-yil 4-aprel) qo'shildi.

Alohida qayd etish joizki, Markaziy Osiyo – YI sammitining aynan O'zbekistonda o'tkazilishi ramziy ma'noga ega. Tarixiy tamaddunlar chorrahasi bo'lmish Samarqand teng huquqli, pragmatik va natijaga yo'naltirilgan yangi turdagi diplomatiya sahnasiga aylanmoqda. O'zbekiston Prezidenti Samarqand sammitida aytib o'tganidek, Buyuk Ipak yo'lining asosiy yo'nalishlari chorrahasida joylashgan ushbu shonli shahar jivlizatsiyalar muloqoti hamda Sharq va G'arb o'rtasidagi diplomatiya, savdo va madaniy almashuvlarning muhim markazi bo'lgan.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, mintaqa mamlakatlari o'rtasida ishonch va yaxshi qo'shnichilik mustahkamlanayotir, keng ko'lami hamkorlik va kooperatsiya aloqalari kengaymoqda. Markaziy Osiyoning ochiqdigi va barcha sheriklar bilan o'zaro manfaatli hamkorlikka tayyor ekani mintaqada xavfsizlik va farovonlikni ta'minlashning eng muhim shartiga aylandi.

Yevropa komissiyasi Prezidenti Ursula fon der Lyayen sammitda nutq so'zlar ekan, Samarqandning tarixiy rolini ta'kidlab, u ko'p asrlar davomida Markaziy Osiyoning urib turgan yuragi, ulkan savdo yo'lining markazi bo'lib kelganini, bu qadimiy shahar yangi hamkorlik va do'stona kelishuvlarga ham guvoh bo'lganini aytdi.

– Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi birinchi sammitda ishtirok etish – bizning uzoq muddatli do'stligimizda yangi sahifa ochish imkoniyatidir, – dedi u. – Yangi global to'siqlar paydo bo'lmoqda. Ammo biz Markaziy Osiyoda boshqa yo'l borligini ko'rsatmoqdami. Markaziy Osiyo faxrli, suveren davlatlar mintaqasi bo'lib, ko'hna tarix va katta maqsadlarga ega. Mintaqadagi strategik joylashuv global savdo yo'llari va investitsiyalar oqimini ochishi imkoniyatidir. Biz yevropaliklar bu yangi bobda sizning ming yillik tarixingizdagi hamkorlaringiz bo'lishni xohlaymiz.

Ilgari bo'lib o'tgan oliy darajadagi sammitlarni sanaganda, ayrimlari

Gazetadagi ma'lumotlarga ko'ra hukumat yangi rahbari Shigeru Ishiba ma'muriyati bu tashabbusni hamda Yaponiyaning mintaqadagi ishtirokini kuchaytirish imkoniyatini ko'rib chiqmoqda.

"Markaziy Osiyoda, ayniqsa, O'zbekistonda keyingi paytda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida Yaponiyaning siyosiy doiralarda Markaziy Osiyoni strategik jihatdan muhim mintaqaga, deb hisoblash tendensiyasi kuzatilmoqda", deb yozadi "Nikkei" gazetasi muxbiri.

### Chegaralar – to'siq emas, ko'priklardir

Xo'sh, Markaziy Osiyoga va bizning mamlakatimizga bo'lgan qiziqish asosida nima yotadi? Eng avvalo – mintaqaning siyosiy jihatdan yetukligi, muloqot va islohotlar uchun ochiqdigi, chegara masalalarining tartibga solingan. Bunda ham O'zbekistonning yetakchi rolini e'tirof etmaslik mumkin emas. Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida davlatimiz har bir bahsni diplomatik yo'l bilan hal qilish tarafdori, bunda mas'uliyat va oqilona harakatlar namoyish etilmoqda.

31-mart kuni Xo'jandda uyushtirilgan uchrashuv nafaqat diplomatik voqea bo'ldi, balki u Markaziy Osiyoning yangi mintaqaviy arxitekturasini mustahkamladi. O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston o'rtasidagi davlat chegaralarining tutash nuqtasi to'g'risidagi tarixiy shartnoma imzolangan – bu sobiq ittifoq makonidagi eng davomiy va nozik jarayonlardan birining tugatilganidir.

Ushbu voqeaqa xalqaro hamjamiyatning munosabati dunyo Markaziy Osiyoning transformatsiya jarayonlarini diqqat bilan kuzatib borayotganini ko'rsatdi. Chegara masalalari tartibga solinishi bo'yicha turli davlatlar tomonidan berilgan ijobiy baho mintaqaning barqarorlik makoniga aylanganining e'tirofidir.

– Xitoy Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekistonni hududiy masalalar to'liq hal etilgani va umumiy chegara to'g'risidagi shartnoma imzolanganini bilan tabriklaydi, – deb bayonot berdi XXR tashqi ishlar vazirining rasmiy vakili Go Szyakun.

Turkiya Tashqi ishlar vazirligi yozma bayonot berib, unda Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston tomonidan uch davlat chegaralari kesishgan joyni belgilash haqidagi bitim imzolanganini olqishladi.

"Biz ushbu kelishuv Markaziy Osiyoda tinchlik, barqarorlik va hamkorlikka xizmat qiladi, deb hisoblaymiz", deb e'tirof etdi Turkiyaning tashqi siyosat mahkamasi vakili.

Muhimi, barcha munosabatlar yagona tezisga asoslangan – hududiy bahslarni muloqot orqali va diplomatik mexanizmlar

faol qatnashchisi sifatida tan olinganligini anglatadi.

Poytaxtimizga tashrif buyurgan ko'plab parlament a'zolari shu tadbirning o'tkazilishini yuksak xalqaro ishonch, qolaversa, O'zbekistonda kechayotgan demokratik transformatsiya jarayonlarining e'tirofi sifatida baholashdi. Sanoqlik yillar ichida mamlakatimizda parlamentarizmning mustahkam institutsional asoslari shakllandi, qonun chiqaruvchi organning vakolatlari kengaytirildi, parlament diplomatiyasi esa tashqi siyosatning samarali vositasiga aylandi.

– Bilamanki, bunday yig'ilishlarni tashkil etish oson emas. Shu sababli, O'zbekiston Respublikasi Prezidentidan bizni o'z mamlakatida qabul qilgani uchun minnatdormiz. Shu bilan birga, Senat Raisiga barcha tashkiliy masalalarni puxta amalga oshirgani uchun ham rahmat aytmoqchiman, – dedi Parlamentlararo Ittifoq raisi Tuliya Ekson. – Yana bir bor ta'kidlamoqchiman, bunday assambleyaga mezbonlik qilish mamlakatning PI analariga sodiqligi va faol ishtirokini anglatadi. Bizning bu yerda bo'lishimiz O'zbekistonning

Deputatlar palatasi a'zosi Viktor Voytko. – Ayniqsa, O'zbekistonda hukm surayotgan muhitni alohida aytish joiz. Bu yerda qadriyatlar ulug'lanadi, shu bilan birga, kelajakka ishonch bilan qarab, odamlar va biznes uchun yangi imkoniyatlar taqdim qilinadi. O'zbekiston taraqqiyot va ertangi kunga bo'lgan ishonch muhitida o'zining yangi rivojlanish bosqichiga qadam qo'yimoqda. Aminmanki, bunday yondashuv tufayli mamlakat yanada oldinga siljishni davom ettiradi hamda shu orqali butun dunyoning e'tibori va hurmatini o'ziga jalb qiladi.

Bunday keng ko'lami tadbirning O'zbekistonda o'tkazilishi tasodif emas, balki mamlakatimizning xalqaro tashabbuslar markaziga aylanishi bo'yicha izchil strategiyaning mantiqiy davomidir. Keyingi yillarda Toshkent va Samarqand tez-tez muhim uchrashuvlar, muzokara va anjumanlar uchun maydon vazifasini o'tamoqda. O'zbekiston dunyo xaritasida konstruktiv muloqot nuqtasi sifatida mustahkamlanmoqda. Parlamentlararo Ittifoq assambleyasi buning yana bir tasdiqi bo'ldi.

O'zbekiston shunday qilib – tinchlik, adolat, barqaror taraqqiyot va o'zaro hurmatga asoslangan muloqot qadrlanadigan yangicha xalqaro qiyofasini shakllantirib, o'zining ta'sir doirasini kengaytirmoqda. Rasmiy Toshkentning nuqtayi nazari global miqyosdagi bahslarda tobora faolroq yangrayapti. Mamlakatimiz yangi zamon kun tartibida nafaqat ishtirok etishga, balki uni shakllantirishga ham tayyor.

Albatta, dunyoda yuz berayotgan o'zgarishlarni qabul qilishi qiyin bo'lgan siyosatdon va ekspertlar doim topiladi. Kimdir o'tmishda qolib ketgan "ta'sir doirasi", "nazorat", "manfaatlar to'qnashuvi" kabi tushunchalar bilan fikrlaydi. Kimdir esa avvaldan o'rganib qolgan bo'lsa, Markaziy Osiyoni hamkor sifatida tan ololmaydi va uni bosim o'tkazish obyekti, deb hisoblaydi. Bunday yondashuvlar vaqtli kelib yo'q bo'lib ketishi turgan gap. Chunki zamonaviy O'zbekiston va butun mintaqamiz o'z tashqi siyosatini xalq manfaatlaridan kelib chiqqan holda, pragmatizm va o'ziga ishonch asosida, ortiqcha ehtirossiz va kamsitishsiz qurmoqda.

Xalqaro munosabatlarda kim boshqalarni hurmat qilishni bilsa va o'zaro manfaatli muloqot tashkil eta olsa, o'sha yutadi. Negaki, qo'pollik – bu doimo no'nuqlik bilan yashirilgan axloqiy, irodaviy va siyosiy kuchsizlik belgisidir. O'zbekiston esa yangi geosiyosiy sharoitda barqarorlik, subyektivlik va o'zaro hurmat – eng muhim qadriyatlar ekanini tushungan holda o'z yo'lidan dadiil va xotirjam bormoqda.

Aynan shuning uchun O'zbekistonning siyosiy nufuzi ortib boryapti. O'ziga o'ta yuqori baho bergani uchun emas, balki yechimlar taklif qilish qobiliyati tufayli. Bosim qilgani uchun emas, balki izchil davom ettirilayotgan ishlar tufayli. Bizdan qo'rqishayotgani uchun emas, balki bizni tinglashni boshlaganliklari tufayli. Bu esa mamlakatimiz to'g'ri yo'nalishda borayotganining, puxta o'ylangan barqarorlik strategiyasini amalga oshirayotganining yaqqol isbotidir.

**Niyatlari ulug', qadami qutlug', Fidoyi insonni ko'rishsin ular.**  
**Talpingan qablarda mehrlar o'tlug', Yonma-yon, yelkadosh yurishsin ular.**  
**Odamiylik nurin diliga joylab, Borar zakovat va yuksak qalb bilan.**  
**Millat ertasini nurafshon aylab, Borar ona yurt va aziz xalq bilan.**  
**Baxtga yorlik etsa qilmay andisha, Qo'lni-qo'lga bergan quchadi zafar.**  
**Tinchlik solnomasin bezab hamisha, Asrlar oshadi bu oliy xabar.**  
**Toki ko'ngil uyi to'lsin ziyoga, Toki xayollarda nur yoysin chaman.**  
**Ezgulik-la boqsin ko'zlar dunyoga, Uni asraganni asrasin Vatan!**

O'tkir RAHMAT.

**“O'zbekiston – tinchlik, adolat, barqaror taraqqiyot va o'zaro hurmatga asoslangan muloqot qadrlanadigan yangicha xalqaro qiyofasini shakllantirib, o'zining ta'sir doirasini kengaytirmoqda. Rasmiy Toshkentning nuqtayi nazari global miqyosdagi bahslarda tobora faolroq yangrayapti. Mamlakatimiz yangi zamon kun tartibida nafaqat ishtirok etishga, balki uni shakllantirishga ham tayyor.”**

yordamida hal etish Markaziy Osiyodagi yangicha siyosiy madaniyat tufayli yuz berdi. Shunday madaniyatki, uni ko'proq aynan O'zbekiston shakllantirmoqda.

– Bu voqea mintaqaviy hamkorlikning juda muhim bosqichini anglatadi. Kelishmovchiliklar davrini yengib o'tish, chegara masalalari hamda Farg'ona vodiysida suv zaxiralari taqsimlash bo'yicha bitimga erishish uchun mamlakat o'rtasida hamkorlik uchun qulay sharoit yaratdi, – deb e'tirof etdi Rossiya Fanlar akademiyasining Jahon iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlar instituti sektor mudiri Stanislav Pritchin.

Ekspertning fikricha, Farg'ona vodiysini o'zaro taqsimlab olgan Tojikiston, Qirg'iziston va O'zbekiston uzoq vaqt yaxshi qo'shni va do'st mamlakatlar sifatida emas, balki antagonistlardek qabul qilingan. Ammo 2016-yildan vaziyat yaxshi tomonga o'zgarib boshladi. Davlat rahbarlarining uchrashuvi tutash nuqta to'g'risidagi kelishuvni mustahkamlab, chegara masalalarini hal etishda so'nggi akkord bo'ldi.

Markaziy Osiyo sharoitida biz nafaqat chegaralarni tartibga solish haqida gapiramiz, balki bu – mintaqaviy subyektlikning yangi darajasidir. Chegaralarni kesib o'tish jarayoni soddalashtirilgani, ijtimoiy va iqtisodiy aloqalar qayta tiklangani, etnik va ma'muriy tutashuvlardagi xavf darajasining kamayishi – bularning hammasi o'zaro munosabatlarning yangicha modelini yaratadi. Markaziy Osiyo "muammoli" mintaqa obrazidan chiqdi, endi ko'p tomonlama sharoitlarda o'zaro ishonch modeli sifatida mustahkamlanadi.

"Chegara to'liq emas, balki ko'prikdir" degan formula shior emas, balki amaliyotga aylandi. Va bu, albatta, O'zbekistonning mintaqaga kelajagi uchun qo'shgan katta hissasidir.

### Milliy ustuvorliklar va global trendlar

Yaqinda bo'lib o'tgan yana bir muhim voqeaqa to'xtalmaslikning iloji yo'q. 1889-yili asos solingan eng ko'hna xalqaro tashkilot – 181 ta milliy parlament va 15 ta mintaqaviy assotsiatsiyani o'zida birlashtirgan Parlamentlararo Ittifoqning assambleyasi ilk bor bizning yurtimizda bo'lib o'tdi. Aynan Toshkent uning 150-yubiley anjumanini qabul qildi, bu esa O'zbekiston global siyosatning

# MILLIY MADANIYATIMIZNING O'LMAS DURDONALARI



Ushbu nufuzli tadbirga Xorazm viloyatida katta tayyorgarlik ko'ridi. Hududlarda turli hajmdagi qurilish, bunyodkorlik va obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish ishlari bajarildi. Festivalning asosiy tadbirlari o'tadigan maydonlar bezatildi. Zamonaviy monitorlar o'rnatildi. Baxshichilik san'atiga oid turli ko'rgazmalar tayyorlandi. Milliy sozlar, liboslar, hunarmandchilik buyumlari, tasviy va amaliy san'at asarlari, haykaltaroshlik namunalari namoyishga qo'yildi.

Tadbinning ochilish marosimida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning IV xalqaro baxshichilik san'ati festivali ishtirokchilariga tabirini Prezident Administrasiyasi departament rahbari Odil Abdurahmonov o'qib eshittirdi.

Ta'kidlanganidek, xalqaro nufuzi tobora ortib borayotgan mazkur anjuman bu yil ko'hna Sharq gavhari - betakror Xorazm diyorida o'tkazilayotgani uncha alohida ruh va mazmun bag'ishlamoqda. Bu o'lkaning dostonchilik maktabi g'oyat qadimiy va boy tarixga ega bo'lib, "Lazgi" kabi dunyoga mashhur mumtoz kuy-qo'shiqlari, go'zal raqslari aynan ana shu azim daryodan oziqlanib kelmoqda, desak, to'g'ri bo'ladi.

Mazkur festivalning bu yil ochiq osmon ostidagi muzey shahar - Xorazm o'tkazilgani uning shukuhini yanada oshiradi, - deydi O'zbekiston xalq baxshisi Hamza Xolboyev. - Chunki Xorazm dostonchilik maktabi qadim an'analar va chuqur tarixiy ildizlarga ega. O'zbekiston xalq baxshilari - Qurbonazar Abdullayev, Ro'zimboy Normatov, Abdulla Qurbonazarov, Yetmishboy Abdullayev kabi yorqin

ovoz va iste'dod sohiblari shu ko'hna zamindan yetishib chiqqan. Ular tomonidan yuksak pardalarda kuylangan "Oshiq G'arib va Shohsanam", "Go'ro'g'li", "Avaxxon", "Alpomish", "Xirmondali" dostonlari milliy madaniyatimizning o'lmas durdonalari sifatida ma'naviyatimiz xazinasi bilan mustahkam o'rin egallagan.

Festival doirasida "Ikkinchi Turkiy dunyo madaniyati forumi" hamda "Yangi O'zbekistonda baxshichilik san'ati: zamonaviy tadqiqotlar va istiqbol" mavzuidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman ham o'tkazildi.

Unda xalqaro miqyosdagi taniqli folklorshunos olimlar sohani yanada rivojlantirishning dolzarb masalalariga haqida ma'ruzalar qilishdi. Baxshichilik san'atida ajdodlar an'anasini davom ettirish, asrlar osha yashab kelayotgan noyob merosni avaylab asrash va ko'paytirish, dostonchilik maktablari tarixi va baxshilar ijodini o'rganish hamda targ'ib qilish bo'yicha fikr-mulohazalar bildirildi.

Anjumanda mamlakatimizning turli oliy o'quv yurtlarida, ilmiy-tadqiqot institutlarida faoliyat yuritayotgan folklorshunos olimlar, baxshichilik va xalq og'zaki ijodi masalalariga qiziquvchi tadqiqotchilar ham sohaga aloqador ilmiy-nazariy maqolalari bilan qatnashdi.

Hammamizga yaxshi ma'lum, dunyoning ko'plab mintaqalarida turli san'at va musiqa anjumanlari

o'tkazib kelinadi, - deydi Haydar Aliyev nomidagi O'zbekiston madaniyat markazi direktori Akif Ma'rifi. - O'zbekistonda o'tkazilgan baxshichilik san'ati festivali ular orasida o'zining alohida o'ri, shuhrati va maqomi bilan ajralib turadi. Ushbu tadbir sababli ertaknamo Xivaning uzoq tarixni aks ettiradigan naqshinkor obidalari, qadim minorlari bilan birga bu muqaddas zamindan taralayotgan baxshiyona taronalari ham dunyo ahlini o'ziga chorladi. Festival o'nlab mashhur baxshi, oqin va jirovlarni, yosh iste'dodlarni kashf qildi, ularning parvoziga qanot, kuch va ilhom bag'ishladi. Ilmiy konferensiyada soha rivojiga oid muhim masalalar muhokama qilindi. Aytish mumkinki, ushbu anjuman turli xalqlar va millatlar o'rtasida o'ziga xos madaniy hamkorlik hamda muloqot maydoniga aylandi.

Ilmiy-amaliy konferensiya jarayonida baxshichilik san'ati istiqbol bilan bog'liq rezolyutsiya qabul qilindi. Festivalda 40 dan ortiq mamlakatlardan kelgan baxshilar, oqinlar, jirovlar, folklor jamoalari o'z chiqishlarini namoyish etdi. - Baxshichilik qadimdan Markaziy Osiyo xalqlarining milliy madaniyatida muhim o'rin egallaydi, - deydi turkmanistonlik baxshi Vefa Nurmuhammedov. - An'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan mazkur festival boshqa xalqlar madaniyati bilan

yaqindan tanishish, ular bilan fikr almashish imkonini yaratmoqda. Zero, yaxshi kuy-qo'shiq sarhad, millat tanlamaydi. U qaysi xalqqa mansub bo'lishidan, qaysi tilda ijro etilishidan qat'i nazar, doim qalblarni entiktiradi. O'zbek va turkman baxshilari azaldan bir-birlarining ijod namunalari bilan tanishib, bayramlarda, xalq sayillarida bir davrada kuylab kelishgan. Bu an'ana bugun ham davom etmoqda. Xivada o'tkazilgan baxshichilik san'ati festivali nafaqat o'zbek va turkman, balki boshqa qardosh xalqlar baxshilari bilan ham ijodiy muloqotda bo'lish imkoniyatini yaratib berdi.

Xivaning Ichan qal'a majmuasidagi maydonda IV xalqaro baxshichilik san'ati festivali doirasida dunyo baxshilari bellashuvi qizg'in ruhda bo'lib o'tdi.

Ishtirokchilar tomonidan kuylangan xalq dostonlaridan parchalar, termalar faqat o'sha xalqning shonli o'tmishini hikoya qiluvchi adabiy yodgorliklarga emas, komil inson tarbiyasidagi muhim Quoyalar, qarashlar manbai, ertangi kungi ma'naviy-madaniy taraqqiyotning poydevori, millat va elatlar o'rtasida do'stlikni ulug'lovchi, insoniylikni tarannum etuvchi badiiy durdonalardir.

Shu ma'noda aytish mumkinki, ushbu xalqaro festival barcha qardosh xalqlarni va dunyo jamoatchiligini, birinchi navbatda, ma'an birlashtirdi. Festival doirasida o'tkazilgan ko'rik-tanlovda baxshi-shoirlar, oqin

va jirovlar, folklor jamoalarining ijrochilik mahoratini Ozarbayjon, Kuvayt, Mo'g'uliston, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Vengriya, O'zbekistonning taniqli san'at va madaniyat namoyandalari, olimlar, malakali mutaxassislardan iborat nufuzli hakamlar hay'ati kuzatdi hamda munosib baholab bordi.

Festivalning yopilish marosimida g'oliblar tantanali taqdirlandi. Xususan, festivalning uchinchi darajali diplomi, statuetka va har biriga 2 ming 500 AQSH dollaridan pul mukofoti Lxamrag'cha Ixagvasuren (Mo'g'uliston), Aksiniya Stepanova (Rossiya) va Ziyodillo Ahmedov (O'zbekiston)ga nasib etdi.

Ikkinchi o'ringa - jami 7 ming AQSH dollari miqdoridagi pul mukofotiga qozog'istonlik Kensulu Turikpen (3,5 ming dollar) hamda o'zbekistonlik Usmonjon Abdullayev (3,5 ming dollar) sazovor bo'ldi.

Birinchi o'rin va har biriga 5 ming AQSH dollaridan pul mukofoti Turkmaniston milliy baxshilar guruhi hamda o'zbekistonlik Muayassar Jumatovaga berildi.

Hakamlar hay'ati xulosasiga ko'ra, Xalqaro baxshichilik san'ati festivali doirasida o'tkazilgan ko'rik-tanlovning bosh sovrini - Gran-prini hamda 7 ming AQSH dollari miqdoridagi pul mukofotini Ozarbayjonning "Oshiqlar" guruhi qo'lga kiritdi.

Dunyo ahli e'tiboridagi shunday nufuzli tanlovda eng oliy o'rinni egallaganidan baxtiyorman, - deydi tanlov g'oliblaridan biri qozog'istonlik Kensulu Turikpen. - Festival unutilmas taassurotlarga boy o'tdi. Ayni paytda do'st ortirdik, turli ellarning og'zaki ijodi va ularni ijro etish uslubini haqida bilimlarimizni boyitdik, yangi tajribalar to'pladik. Xorazm viloyatining tarixiy obidalari va diqqatga sazovor joylariga qilgan sayohatimiz ham hech qachon esimizdan chiqmaydi. Xalqingizning mehmondo'stligi hayratimizni oshirdi. Hozirgi o'g'ur dunyoda O'zbekistonda tinchlik-totuvlikning barqarorligi, o'tkazilayotgan bunday nufuzli tadbirlar, madaniyat va san'at rivojiga berilayotgan yuksak e'tibor xalqingizning ulkan baxtidir. Mana shu saodat abadiy bo'lsin!

**Odilbek ODAMBOYEV, Dilshod KARIMOV ("Xalq so'zi").**

## YANGILIKLAR xabarlar TAFSILOTLAR

### TOSHKENTDA EKOLOGIK TEXNOLOGIYALAR KO'RGAZMASI

Shu yilning 19 - 21-iyun kunlari O'zbekiston poytaxti "yashil" innovatsiyalar markaziga aylanishi kutilmoqda.



Gap shundaki, Toshkent shahridagi "Central Asian Expo" (CAEX) ko'rgazmalar majmuasida ilk bor "Eco Expo Central Asia - 2025" ekologik texnologiyalar xalqaro ko'rgazmasi bo'lib o'tadi.

Bu shunchaki ko'rgazma emas, balki barqaror kelajak yo'lida global ekologik hamjamiyat, sanoat, davlat va xususiy tuzilmalarni birlashtiradigan harakat, shuningdek, ilg'or ekologik texnologiyalar, amaliyot va yechimlar almashish uchun mintaqadagi ilk ixtisoslashtirilgan platformadir. Bu yerda ekologiyadagi sun'iy intellektdan tortib sunni tejjah yechimlarigacha, "yashil" energiyadan ekoturizmigacha bo'lgan innovatsiyalar namoyish etiladi.

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tomonidan uyushtiriladigan ushbu tadbirda Turkiya, Xitoy, BAA, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Saudiya Arabistoni, Germaniya va boshqa o'nlab davlatlardan ekspozitsiya ishtirok etishi kutilmoqda.

### SOHIBKORLARGA IMTIYOZ



Uzumchilik - sermahsul va serdaromad soha. Shu bois yurtimizda uning sanoatbop navlarini ko'paytirish, qayta ishlash, sohaga ilm-fan yutuqlarini keng joriy etish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Qishloq xo'jaligi vazirligi matbuot xizmatidan ma'lum qilishlaricha, yangi bog' va uzumzorlar barpo etuvchilarga 18 foiz stavkada 7-yillik kredit beriladi, shundan uch yili imtiyozli davr hisoblanadi. Kredit bosqichma-bosqich ravishda yer tayyorlash (10 foiz), ko'chat va ekish (40 foiz), sug'orish tizimi (30 foiz) va parvarish (20 foiz) uchun ajratiladi. Bir gektarga eng ko'pi bilan BHMning 500 baravaricha kredit berilishi ko'zda tutilgan.

Statistikaga ko'ra uzum maydonlari bo'yicha Ispaniya, Fransiya, Xitoy, Italiya, Turkiya yetakchi besh mamlakat qatoridan o'rin olgan. O'zbekiston 181 ming gektar uzum maydonlari bilan 7-o'rinni egallaydi. Hosildorlik bo'yicha esa O'zbekiston ham yetakchi davlatlar qatorida.

### KURSANTLAR SUDDA HAKAMLIK QILDI



Bojxona institutining professor-o'qituvchilari va bojxona huquqi ta'lim yo'nalishida bilim olayotgan tinglovchilar ishtirokida "Nazariya - amaliyot - tajriba uyg'unligi" tamoyili asosida amaliy seminar-trening o'tkazildi.

Bojxona qo'mitasi, Sudyalalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalalar oliy maktabi hamda Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudi bilan hamkorlikda o'tkazilgan ushbu seminar davomida institutning yurisprudensiya yo'nalishi bo'yicha 3-bosqich kursantlari tomonidan iqtisodiy ish bo'yicha "imitativ sud majlisi" tashkil etildi. Unda kursantlar o'quv jarayonida olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash imkoniga ega bo'ldi.

**Rahim Sherqulov ("Xalq so'zi").**

## PROFESSOR AMIR JA'FAR: FESTIVAL KO'PLAB MAMLAKATLARDAN KELGAN SAN'AT USTALARINI BIR SAHNAGA JAMLADI

Xiva shahrida bo'lib o'tgan IV xalqaro baxshichilik san'ati festivali ishtirokchisi va hakamlar hay'ati a'zosi - Kuvayt Tayanch ta'lim kollejining Musiqqa kafedrasini mudiri, professor Amir Ja'far mazkur anjuman haqidagi fikrlarini bildirdi:

### E'tirof

To'rtinchi marotaba o'tkazilgan Xalqaro baxshichilik san'ati festivali dunyoning ko'plab mamlakatlardan kelgan san'at ustalarini bir sahnaga jamladi. Bu tadbirning aynan Xorazm zaminida o'tkazilishi ham bejiz emas. Bilamizki, Xorazm san'ati doim dunyo ahlini hayratga solib kelgan. Shuningdek, mazkur zaminning o'ziga xos jozibasi festival mehmonlarining hayratini yanada oshirmoqda.

Ikki kun davomida dunyoning turli mamlakatlardan kelgan san'at ustalari o'z mahoratlarini namoyish qildi. Takrorlanmas chiqishlarni, xalq folklorlarining ishtirokchilar tomonidan yuqori saiyada ijro etilishini alohida aytish joiz.

Ta'kidlash kerakki, O'zbekiston milliy folklor jamoalari hamda yakkaxon ijrochilarining yuksak mahorati tomoshabin va mutaxassislarning e'tirofiga sazovor bo'ldi.

Baxshichilik qadimdan Markaziy Osiyo xalqlarining milliy san'atlaridan biri bo'lib kelgan. Bugungi kunda O'zbekistonda ushbu san'at rivojiga qaratilayotgan e'tibor va bu bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarining natijasi sifatida mazkur festivalni keltirishimiz mumkin. Uni an'anaviy tarzda o'tkazish nafaqat o'zbek milliy san'atini dunyoga keng targ'ib qilish, balki boshqa xalqlar madaniyatini bilan yaqindan tanishish, ular bilan fikr almashish imkonini yaratmoqda. Zero, yaxshi kuy-qo'shiq sarhad, millat tanlamaydi. U qaysi xalqqa mansub bo'lishidan, qaysi tilda ijro etilishidan qat'i nazar, doim qalblarni entiktiradi.

**"Dunyo" AA. Xiva - Al-Kuvayt**

## Oramizdagi odamlar

### BIRPAS BOTMAY TUR, QUYOSH!

Yoshi yetmishdan oshgan kayvoni onaxon Dilorom aya qishning izzirini-yu, yozning jazirasida o'zini urintirmay, nabiralari qurshovida, kelining qo'lidan choy ichib, yetti qavat ko'rpacha ustida o'tirsa ham bo'lardi. Tinib-tinchimagan onaxon buni istamadi. Poytaxtimizdagi Yangi Sebzor dahasida mo'jazzina kutubxonaga barpo etilishiga yelib-yugurib hissa qo'shdi. Bugun uni har kuni shu kutubxonadan topasiz - nimanidir mutolaa qilayotgan bo'ladi. Kutubxonachining o'zi kitobxon bo'lganiga ne yetsin!



Shinamgina kutubxonaga yetti yoshdan yetmish yoshgacha bo'lgan mahalla ahlining sevimli maskaniga aylanib ulguribdi. Tashqi tarafdin kirsangiz o'zbek va jahon adabiyoti durdona asarlariga ko'zingiz tushadi. Kitoblarning ko'pligidan aqlingiz shoshadi. Yaqinda bir tadbirkor 20 dona yangi kitob hadya qilibdi-yu, o'zini tanishtirmay ketib qolibdi. "Dunyoda yaxshi odamlar ko'p", deydi Dilorom aya qo'lini duoga ochib.

Kutubxonaga qadami yetgan inson boriki, xushfe'l va xushchaqchaq Dilorom Hamdamovaning maroqli suhbatidan mamnun bo'lishi, shubhasiz. Bir vaqtning o'zida u ham buvi, ham ona, ham kutubxonachi, ham repetitor, qolaversa, Olmazor tumanidagi "Buvijonlar maktabi" rahbari...

42-yil televideniyeida ishlab, qator ko'rsatuvlarga mualliflik qilgan, qanchadan-qancha taqdirilarni

ekranga olib chiqqan onaxonni izlab borib, mushtdekkina gizaloqqa dars o'tayotganining shohidi bo'ldik. Dilorom aya mashg'ulotini tugatguncha kutib turishimni aytdi. Shundan ko'rinib turibdiki, u biror ishni yakunlamasdan ikkinchisini boshlamaydi.

Boshqa ish ustida mashg'ul bo'lsa-da, mening parda ortidan botib borayotgan quyoshga qarab qo'yayotganimni payqadi, shekilli, qo'limga kitob tutqazib, "Birpas mutolaa qilib, savollaringizni tayyorlab turing" dedi. Kitobdagi "Rumiyni o'qiyotgan bank xodimi" nomli lavha Dilorom aya haqida edi. Undagi bir satr diqqatimni tortdi. Onaxon darsini tugatishi bilanoq so'radim:

- Nima sababdan "Ikki kishi o'rtasida janjal chiqsa, aqllirog'i aybdordir" degan hikmatga amal qilasiz?

- Yoshligimizdan ota-onamiz aqli

**Munira RAHIMOVA, O'ZDJTU talabasi.**

## Toshkent viloyatining Ohangaron tumanidagi O'rg'ozsoy kengliklarida an'anaviy "Iloq" etnofestivali bo'lib o'tdi.

### Xalq so'zi Narodnoe slovo

**MUASSISLAR:**  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

### Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administrasiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi - 229. Buyurtma G-242. 15 407 nusxada bosildi. Hajmi - 2 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



**TELEFONLAR:**  
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.  
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

**MANZILIMIZ:**  
100066,  
Toshkent shahri,  
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.  
Navbatchi muharrir F. Bozorov.  
Musahhih S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonalar manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni - 23.55 Topshirildi - 01.35 1 2 3 4 5 6